



BUXORO AMIRINING HADYASI

Mahmudova Gulhayo Avaz qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17200195>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-sentabr 2025 yil

Ma'qullandi: 23-sentabr 2025 yil

Nashr qilindi: 25-sentabr 2025 yil

KEY WORDS

hadya, masjid, saroy, rus-yapon urushi, harbiy kema, esminets, Nikolay II, flot, dengiz kuchlari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Buxoro amiri Abdulahadxonning siyosiy faoliyati davomida bir qator xayr ishlariga qo'l urganligi, turli bino va inshootlarni qurish uchun ajratgan katta miqdorda mablag'lari, xayriya va homiylik ishlarining eng yirigi hisoblangan Emir Buxarskiy harbiy kemasi haqida so'z boradi..

Eng so'nggi mang'it amirlari bo'lmish amir Abdulahadxon hamda o'g'li amir Olimxon o'zining siyosiy faoliyatida davlatning ichki va tashqi hayotida bir qator o'zgarishlarga sabab bo'lgan turli homiylik va xayriya ishlarini amalga oshirganlar. 1885-yilda otasi amir Muzaffarxonning vafotidan so'ng amirlik taxtiga o'tirgan 28 yoshli Abdulahadxon qisqa fursatda otasining harbiy-siyosiy mag'lubiyatini yorqin diplomatik g'alabaga aylantira olgan edi. Abdulahadxon nafaqat Rossiya, balki Italiya, Tunis, Fors, Fransiya, Bolgariya, Daniya, Chernogoriya, Siam (hozirgi Tailand) davlatlari bilan ham yozishmalar olib borgan.

Amir Said Abdulahadxon o'zining zamondosh boshqa musulmon rahbarlaridan farqli ravishda ko'p marta Rossiyaga safarlar uyushtirgan va o'zining xayr ishlari bilan o'sha yerdagilarni lol qoldirgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoro amirligini boshqargan mang'itlar sulolasi vakillari, jumladan Abdulahadxonning siyosiy faoliyati hanuzgacha to'liq o'rganilmagan. U haqida xorijlik mutaxassislar, sovet davri tarixshunoslari tomonidan ham, mustaqillik davrida ham biror bir tadqiqot yoki ilmiy asar yaratilmagan. Shunga qaramasdan uning homiylik va xayriya ishlari tarixiy tadqiqotlar orqali isbotgan. Saroy tarixchisi Mirza Salimbekning "Tarixi Salimiy" asari, P.P.Shubinskiyning "Buxoro ocherklari", A.G.Nedvetskiyning "Buxoro hukmdorlari" risolalari, S. Inoyatov, Q.Rajabov, Sh.Hayitov, H.To'rayev, R.Xoliqova, D.Jamolova, D.Abdullayevlar ilmiy ishlarida Abdulahadxonning homiylik va xayriya ishlari haqida ba'zi ma'lumotlar uchraydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda tarixiy, tizimlashtirish, qiyosiy hamda muammoviy xronologik kabi ilmiy tadqiqot usullari hamda xolislik tamoyillaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Abdulahadxon Rossiyada turli bino va inshootlarni qurish uchun katta miqdorda mablag' ajratgan:

- Buxoro amiri saroyi – Jeleznovodskda arxitektorlar V.N. Semyonov va I.I. Baykov¹;
- Buxoro amiri saroyi – Yaltada me'mor N.G. Tarasov²;
- Buxoro amirining saroyi – (Yangi Buxoro - Kogon) A.L.Benua tomonidan loyihalashtirilgan³;
- Buxoro amirining vakolatxonasi – Orenburgda;
- Buxoro amirining uyi (madaniy va ishbilarmonlik markazi) – Sankt-Peterburgda S.S.Krichinskiy tomonidan loyihalashtirilgan⁴;
- Sankt-Peterburgdagi musulmon masjidi – S.S.Krichinskiy tomonidan ishlab chiqilgan⁵.

Buxoro amiri Turkiston xayriya jamiyatining faxriy a'zosi edi. Amir islom olami uchun g'amxo'rlik qilishga alohida ahamiyat bergan. Uning Makka va Madina ziyoratgohlari foydasiga vaqfga bergan mulklar yiliga 20 ming rublgacha daromad keltirgan. 1880-yillarning boshlarida amir Abdulahadxon Istanbul va Makkani bog'laydigan, Hayfa va Quddusdan o'tgan Hijoz temir yo'li qurilishiga bir necha ming rubl xayriya qildi. Buxoro amirligining sobiq g'aznachisi Aron Candy ushbu noyob xalqaro loyihaning aksiyadori, nafaqat shaxsiy ta'sirini, balki Rossiya imperiyasining xalqaro nufuzini ham sezilarli darajada mustahkamlaydi deb ma'lumot bergan.

1888-yilda amir Abdulahadxon imperatorga taqdim etilgan pulning bir qismi Turkiston shahridagi mahobatli masjid ta'miriga sarflangan.

Amir Abdulahadxon 1892-yilda podsho Rossiyasiga muhtojlar uchun 100 ming rubl⁶, 1894-yil 1-fevralda imperator Aleksandr I sog'lig'i uchun Yangi Buxoro shahridagi rus maktabiga 1000 rubl⁷, 13-noyabrda marhum imperator Aleksandr III uchun qurilgan yodgorlikka 30 ming rubl⁸, 1898-yilda Peterburgdagi Ayollar tibbiyot institutiga 400 ming rubl⁹, 1899-yilda Ashxoboddagi masjidga 1000 rubl¹⁰, 1904-yilda Uzoq Sharq bilan urushda majruh bo'lganlar oilasiga 100 ming rubl¹¹, 1904-yilda Kavkazda yashovchi qozoqlar uchun 30 ming rubl¹², 1904–1905-yillardagi rus-yapon urushi vaqtida Rossiya imperiyasi armiyasi muhtojlariga 1,5 mln rubldan ortiq xay-ehson qilgan¹³.

1910-yilda amir o'z mablag'lari hisobidan Yalta shahar aholisi uchun 100 ta bemorni qabul qilishga mo'ljallangan shifoxona barpo ettiradi. Shifoxonada kasallarga bepul xizmat

¹ Боглачёв С. В. Летний дворец эмира Бухарского // Архитектура старого Железноводска. Пятигорск: Снег, 2010. – С.375

² Хамидова З. Бухоро амирларининг хориждаги бунёдкорлиги.// Маданият. №1. – 2020-йил 1-январь

³ Бобожонов Ш. Амир Абдулахадхоннинг Янги Бухородаги резиденцияси // Бухоронорма, № 16. – 2023-йил 28-февраль. – Б. 3.

⁴ Мазинг, Ю. А. Ленинградская квартира. //Альманах «Пространство и Время» – 2014. – с. 44

⁵ Mahmudova G. The first muslim mosque in Petersburg // Паёми донишқада тафаккури таърих анвори илм. – №2-3 – 2025. – P.682.

⁶ Абдирашидов З. Аннотированная библиография Туркестанских материалов в газете «Таржуман» (1883–1917). – Токио: Department of Islamic Area Studies, 2011. – С. 74.

⁷ «Туркестанские ведомости». № 1333. 5(17) январь, 1895.

⁸ «Туркестанские ведомости». № 1333. 5(17) январь, 1895.

⁹ ЎзМА, И – 2 фонд, 1 – рўйхат, 43 – иш, 3 – варак.

¹⁰ Жамолова Д. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари) – Тошкент: Muharrir, 2020. – Б. 48.

¹¹ Бухоро амирининг ҳадяси // Таржимон, 1904 йил 13 февраль. – № 13.

¹² Абдуллаев Д. Бухоро амирлигида мукофотлаш тизими – Тошкент: «TAMADDUN», 2022. – Б. 40.

¹³ Бухоро амирининг ҳадяси // Таржимон. 1904. № 13.

ko'rsatilgan, bu shahar aholisi uchun juda katta marhamat bo'lgan. Shifoxonaning tantanali ochilishida imperator Nikolay II ham qatnashgan¹⁴.

Emir Buxarskiy kemasining taqdiri 1904–1905-yillarda bo'lib o'tgan rus-yapon urushi bilan bevosita bog'liq. 1905-yilning may oylarida Uzoq Sharqda rus-yapon urushi boshlanganiga olti oydan oshgan edi – ularning orqa tomoniga Trans-Sibir temir yo'lining ingichka ipi bilan bog'langan rus qo'shinlari qurol va o'q-dorilar yetishmasligidan bo'g'ilib, tobora Manjuriya tomon orqaga chekinishdi. Urush boshlanganidan ko'p o'tmay, Rossiya Tinch okeani flotining asosiy dengiz bazasi Port Artur qamal ostida qoldi. Harbiy kemalarning asosiy qismi asta-sekin ko'rfazda yakson etildi, yaponiyaliklar ko'rfazga kirish joyini minalar bilan to'sib qo'ygan edi.

Rossiya quruqlikdagi kuchlari Port Arturni quruqlikdan himoya qilishga bir necha bor urinib, chekinishga majbur bo'lishgan. Boltiq dengizidan bir necha o'nlab zamonaviy kemalarni shakllantirish va 2 va 3-Tinch okean eskadronlariga birlashtirilgan holda urushga jo'natish Uzoq Sharqdagi flotga katta umid berdi. Ammo rus floti eng jangovar kuchlarining sakkiz oylik sayohati fojiali tarzda yakunlandi. Ular 1905-yil 24 (27)-mayda Koreya yarim orolining janubida bo'lib o'tgan Susima bo'g'ozidagi dengiz jangida Yaponiya floti tomonidan mag'lubiyatga uchradi. Ushbu jangda Rossiya o'z flotining eng yaxshi kuchlarini yo'qotdi. Rus-yapon urushidagi mag'lubiyat mamlakatni qurolli kuchlarini modernizatsiya qilishga undadi. Podsho Nikolay II tomonidan dengiz flotini qayta tiklash bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan dastur qabul qilindi. Dastur bir necha yillar davomida Oq, Barents, Boltiq, Qora dengizlar hamda Tinch okeanidagi flotlar uchun o'nlab jangovar kemalar, esminets, kreyserlar va suv osti kemalarini qurishni qamrab oladi.

Ushbu maqsad yo'lida Rossiya imperiyasi byudjetidan yuzlab million rubl ajratilishi bilan bir qatorda dengiz floti foydasiga aholidan xayriya yig'imi ham e'lon qilinadi. 1905–1911-yillar oralig'ida umumiy ravishda 60 ga yaqin esminets qurilgan bo'lib ularning 19 tasi ixtiyoriy yig'ilgan xayriyalar hisobiga to'g'ri keladi. Bu davrda ixtiyoriy xayriya mablag'lari natijasida to'plangan pullarga bir qancha suv osti kemalari ham quriladi. Bundan tashqari, bir necha o'n millionlab rubl miqdoridagi xayriya mablag'lari birinchi harbiy samolyotni, ya'ni rus harbiy havo kuchlarini yaratish uchun sarflanadi. Xayriya mablag'larini yig'ishni va ulardan foydalanishni, Nikolay II tomonidan tashkil etilgan „Ixtiyoriy xayriya mablag'lari asosida dengiz flotini kuchaytirish bo'yicha maxsus qo'mita“ („Особый комитет по усилению военного флота на добровольные пожертвования“) nazorat qilgan. Qo'mita hujjatlarida Rossiya imperiyasining har bir hududidan, shu jumladan O'rta Osiyo mintaqasidan, yig'ilgan xayr-ehsonlar aks etgan. Ushbu hujjatda, O'rta Osiyo mintaqasidan umumiy hisobda 319 090,04 rubl to'plangan (agar Buxoro amiri hazratlaridan olingan 1 000 000 rublni hisobga olsak, jami 1 319 090,04 rublni tashkil etadi") deb yozib qoldirilgan. Hujjatda shuningdek, xayriya mablag'larining ozchilik qismi din peshvolari va ishchilarga tegishli bo'lgani aytib o'tilgan.

Emir Buxarskiy harbiy kemasi 1904-yilda Xelsinki (Finlandiya) Skandinaviya kemasozlik zavodida qurilgan. „Fin“ turidagi to'rtta harbiy kemalardan („Emir Buxarskiy“, „Dobrovolets“, „Moskvityanin“, „Fin“) biri edi¹⁵. Nomi Buxoro amiri Abdulahadxon sharafiga

¹⁴ Хайитов Ш., Ризаев Б. Амир Абдулахадхоннинг Россия империясида курдирган иншоотлари // Педагогик махорат. 2017-йил №1. – Б. 154.

¹⁵ Мельников Р. Эскадренные миноносцы типа «Доброволец». – ЛитРес 2018. – С.131.

atab qo'yilgan. Kemaning qurilish bahosi 52 ming rublga teng bo'lgan. 1909–1910-yillarda Sankt-Peterburgda “V. Creighton and Co” aksiyadorlik jamiyatining kemasozlik zavodida suv isitish quvurlarini almashtirish bilan qozonlarni kapital ta'mirlash natijasida qaytadan jihozlandi.

Kemaning suv o'tkazuvchanligi 620 tonnani tashkil etadi, kema bug' dvigatellarining quvvati 6200 ot kuchiga teng bo'lib, bu uning 25 tugun tezlikda harakatlanishi va 1000 dengiz milidan ortiq masofani bosib o'tishni ta'minladi. Qurollanish nuqtayi nazaridan, kema o'z sinfidagi eng zamonaviy kemalardan biri bo'lgan edi. Kema ekipaji 99 kishini tashkil etgan. Kemaning Boltiq flotidagi xizmati notinch voqealar bilan boshlandi: Birinchi rus inqilobi paytida kema ekipaji Xelsinki bandargohi yonidagi Sveaborg qal'asining isyonkor garnizoniga o't ochishdan bosh tortdi. Dengizchilarning inqilobiy his-tuyg'ularidan qo'rqib ketgan flot qo'mondonligi kema ekipajlarini vaqtincha michmanlar - kadet korpusining (dengiz maktablari) yuqori sinf o'quvchilari bilan almashtirishga majbur bo'ldi.


Emir Buxarskiy Birinchi jahon urushi, fevral burjua demokratik inqilobi va fuqarolar urushlarida ham qatnashgan. 1917-yil oktabr oyida esminets ekipaji Petrograddagi qurolli qo'zg'olon paytida bolsheviklarni qo'llab-quvvatlab, ular tarafiga o'tdi. 1918-yil oktabr oyida Emir Buxarskiy Boltiq flotining bir nechta kemalari bilan Mariinskiy tizimi kanallari orqali Volgaga ko'chirildi va o'sha yerda Qizil Armiyaning Astraxan-Kaspiy harbiy flotiliyasini mustahkamladi. Bu yerda 1919-yil boshida yangi “Yakov Sverdlov” nomini olgan kema Saritsin, Astraxan yaqinidagi janglarda va Ozarbayjonda aksilinqilobchilarga va qaroqchilarga qarshi Bokuni ozod qilishda qatnashdi. Kemaga Sovet Rossiyasining Afg'onistondagi birinchi elchisi bo'lgan afsonaviy inqilobchi dengizchi Fyodor Raskolnikov qo'mondonlik qilgan¹⁶.

Kema 1904–1918-yillarda Boltiq floti, 1918–1919-yillarda Azov-Kaspiy harbiy flotiyasi, 1919–1920-yillarda Volga-Kaspiy harbiy flotiyasi, 1920–1923-yillarda Kaspiy dengiz kuchlari va 1923–1925-yillarda Boku harbiy porti tarkibiga kiradi.

Emir Buxarskiy 1925-yil 1-dekabrda Qizil dengiz floti tarkibidan chiqarildi va demontaj qilish uchun Davlat fondiga o'tkazildi. U o'z sayohatini 1925-yil oxirida Astraxanda tugatdi, o'sha yerda metallolom uchun demontaj qilindi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Abdulahadxon bulardan tashqari Toshkent, Buxoro, Rossiyaning ba'zi mintaqalarining muhtoj bo'lgan aholisiga maktablar ochishga ko'mak bergan. Rus flotini tiklash uchun bir million oltin rubl (o'sha paytda misli ko'rilmagan hadya!) Rossiya sub'yekti tomonidan emas, balki Buxoro amiri Abdulahadxon tomonidan qilingan edi. “Rossiyadagi muhtojlar uchun” Abdulahadxon tomonidan amalga oshirilgan xayr-saxovat ehsonlari Buxoro amirligi va Rossiya o'rtasidagi “do'stona munosabatlarni mustahkamlash” deb baholangan. Shuningdek, ushbu xayriya va homiylik ishlari, shuningdek, chet davlatlariga kiritilgan sarmoya va kapitallar Buxoro amirligi va qo'shni davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida asosiy omillardan biri bo'lgan.

¹⁶ <https://russkie.org/articles/dar-emira-bukharskogo/>



Emir Buxarskiy harbiy kemasi. Rossiya va Sovet dengiz floti kemalarining fotosuratlari arxividan.



Emir Buxarskiy va Dobrovolets esminetslari. Rossiya va Sovet dengiz floti kemalarining fotosuratlari arxividan.

Adabiyotlar:

1. Боглачёв С. В. Летний дворец эмира Бухарского // Архитектура старого Железноводска. Пятигорск: Снег, 2010. – С.375.
2. Ҳамидова З. Бухоро амирларининг хориждаги бунёдкорлиги.// Маданият. №1. – 2020-йил 1-январь. – Б. 8.
3. Бобожонов Ш. Амир Абдулахадхоннинг Янги Бухородаги резиденцияси // Бухоронома, № 16. – 2023-йил 28-февраль. – Б. 3.
4. Мазинг, Ю. А. Ленинградская квартира. //Альманах «Пространство и Время» – 2014. – С. 44.
5. Mahmudova G. The first muslim mosque in Petersburg // Паёми донишқада тафаккури таърих анвори илм. – №2-3 – 2025. – Р.682.
6. Абдирашидов З. Аннотированная библиография Туркестанских материалов в газете «Таржуман» (1883–1917). – Токио: Department of Islamic Area Studies, 2011. – С. 74.
7. «Туркестанские ведомости». № 1333. 5(17) январь, 1895.

8. ЎзМА, И – 2 фонд, 1 – рўйхат, 43 – иш, 3 – варақ.
9. Жамолова Д. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари) – Тошкент: Muharrir, 2020. – Б. 48.
10. Бухоро амирининг ҳадяси // Таржимон, 1904 йил 13 февраль. – № 13.
11. Абдуллаев Д. Бухоро амирлигида мукофотлаш тизими – Тошкент: «TAMADDUN», 2022. – Б. 40.
12. Ҳайитов Ш., Ризаев Б. Амир Абдулаҳадхоннинг Россия империясида қурдирган иншоотлари // Педагогик маҳорат. 2017-йил №1. – Б. 154.
13. Мельников Р. Эскадренные миноносцы типа «Доброволец». – ЛитРес 2018. – С.131.
14. <https://russkie.org/articles/dar-emira-bukharskogo/>.

